

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI KATTA GURUHI BOLALARIDA GENDER TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA DINAMIK ERTAKLARDAN FOYDALANISH

Qurbonova Go'zal

Buxoro davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruhi bolalarida gender tolerantlikni shakllantirishda dinamik ertaklar haqida fikr yuritilgan. Maqolada mavzuga oid ertaklar misol tariqasida keltirilib voqealar rivojining statik va dinamik shakllari qisqacha ta'rifi berilgan.

Kalit so'zlar: gender tolerantligi, maktabgacha ta'lim, dinamik ertaklar, statik ertaklar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИНАМИЧНЫХ СКАЗОК В ФОРМИРОВАНИИ ГЕНДЕР- НОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ДЕТЕЙ БОЛЬШОЙ ГРУППЫ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Курбанова Гузал

*Бухарский государственный педагогический институт Преподаватель кафедры «Дошколь-
ное образование»*

Аннотация. В данной статье размышляется о динамичных сказках в формировании гендерной толерантности у детей большой группы дошкольных образовательных организаций. В статье в качестве примеров приведены сказки, относящиеся к теме, а также дана краткая характеристика статических и динамических форм хода событий.

Ключевые слова: гендерная толерантность, дошкольное образование, динамичные сказки, статичные сказки.

THE USE OF DYNAMIC FAIRY TALES IN THE FORMATION OF GENDER TOLERANCE IN CHILDREN OF A LARGE GROUP OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Kurbanova Guzal

Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the «Preschool Education» department

Abstract. This article reflects on dynamic fairy tales in the formation of gender tolerance in children of a large group of preschool educational organizations. In the article, fairy tales related to the topic are given as examples, and a brief description of the static and dynamic forms of the course of events is given.

Key words: gender tolerance, preschool education, dynamic fairy tales, static fairy tales.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarda gender tolerantligi, gender o'ziga xosliklar haqida fikrlarni shakllantirishda bolaning psixologik jihatdan yosh xususiyatlarini hisobga olish mumkin rol o'ynaydi. Mazkur yoshdagi bolalar odatda, ertaklar, qo'shiqlar va hokazolardan katta taassurotlar hosil qiladi hamda kognitiv-bilish jarayonlarini korreksiyalaydilar. Pedagogik va psixolog nuqtayi nazarlar qaralganda, ertak terapiyasi - bu axloqiy me'yorlar bo'yicha bolaning xatti-harakatlarni korreksiyalashga yordam beradigan, qo'rquvni yo'qotadigan va sog'lom psixo-emotsional rivojlanishga yordam beradigan jarayondir. Ushbu usulning o'ziga xosligi shundaki, uni murakkab bo'lmagan shaklda tarbiyachi-o'qituvchi, ota-ona va psixologlar tomonidan keng qo'llash mumkin. Shuningdek, mazkur psixologik usul jazolash, rag'batlantirish, real hayotdagi stereotiplardan namuna ko'rsatish kabi xalq pedagogikasi usullariga nisbatan samarali hamda tez o'zlashtiruvchanligi bilan ajralib turadi.

Maktabgacha yoshdagi bolada gender tolerantligini yetarli darajada shakllantirish tarbiyachilarning vazifalaridan biri va muvaffaqiyatli hamda samarali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish sharti hisoblanadi. Gender o'ziga xosliklar bolalarda turli faoliyat turlarida namoyon bo'ladi: o'zaro muloqotda, o'yinlarda, o'z-o'zi va boshqalarni idrok etish hamda ma'lumotlardan xulosa chiqarishda. "Shaxsda gender tolerantligini shakllantirish masalalarida tarbiyachining to'g'ri yo'nalishi ta'lim va tarbiya jarayonini yanada samarali, insonparvar va individual olib borilishini ta'minlaydi. Gender nazariyasi

prinsiplari, gender psixofiziologik farqlari haqidagi ilmiy bilimlarga asoslangan pedagogik jarayonlar gender pedagogikasi tomonidan amalga oshiriladi.

Gender pedagogikasi – o‘g‘il - qizlarni tarbiyalash va o‘qitish, ularning jinsi o‘ziga xosligi va qadriyat yo‘nalishlarini rivojlantirish, ularning jinsiy xulq-atvorini aniqlash, ijtimoiy tajriba va madaniyatni faol o‘zlashtirish va ko‘paytirish orqali muloqot hamda faoliyatda amalga oshiriladigan fan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ertak terapiyasi usullaridan ko‘pincha ertak aytish, birgalikda ertak tuzish va rollarni o‘zaro taqsimlagan holda ertaklarni sahnalashtirish qo‘llaniladi. Bu jarayonda milliy, xalq, qardosh xalqlar ertaklari yoki biror mashhur muallifning hikoyalaridan, shuningdek, mavjud muammoning yechimi uchun maxsus kashf qilingan ertaklardan foydalanish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ertak terapiyasi quyidagi pedagogik va psixologik muammolarni hal etishda samarali hisoblanadi:

- deviant xulq-atvorni adaptiv tarzda korreksiyalash;
- maktabgacha yoshdagi bolada mavjud bo‘lgan qo‘rquv, fobiya, asabiylashishlarni bartaraf etish;
- maktabgacha yoshdagi bola boshidan kechirgan salbiy his-tuyg‘ularni unutishda yoki bartaraf etishda yordam berish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda umumiy insoniy fazilatlar va axloqiy me‘yorlarni tarbiyalash;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda gender tanish va tolerantlikka xos bo‘lgan jihatlarni erkin va ixtiyoriy o‘rganish hamda rivojlanish;
- maktabgacha yoshdagi boshlalarda hayotiy vaziyatlar asosida vitagen tajriba to‘plash.

Katta guruhlarda tarbiyalanayotgan 5-6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar bu yoshda ko‘pincha o‘zlariga ishonmaslik, mazah bo‘lish, kulguli ko‘rinish, noto‘g‘ri ish qilish kabilardan qo‘rqishadi. Agar bu muammolarni o‘z vaqtida ijobiy hal etilmasa, kelajakda bu jiddiy psixik-ijtimoiy hamda pedagogik muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolarni ijobiy yechish uchun ertaklardan yuqori samara bilan foydalanish mumkin. “Ammo ertak terapiyasi turli yoshdagi maktabgacha ta’lim guruhlari tarbiyalanayotgan bolalar uchun turli bosqichlarda va faol va passiv tarzda o‘zini baholaydigan bolalar uchun individual olib borilishi maqsadga muvofiq”. Masalan, “Badbashara o‘rdakcha” haqidagi erta ko‘proq o‘ziga past baho beradigan bolalar uchun mos kelsa, “Uch og‘ayni botirlar” haqidagi ertak haddan tashqari ehtiyotkor bolalar uchun muvofiq keladi.

Dinamik ertaklar. Dinamik ertaklar o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, bolalar va tarbiyachi-o‘qituvchi, yoki ota-ona ertakni o‘zi istagan tarzda o‘zgartirishi, novatsiya sifatida yondashishi mumkin. Dinamik ertaklar novatorlik xususiyatiga ega bo‘lib, ularga qo‘shimcha yetishmayotgan ertak qahramonlarni qo‘shish, qahramonlarning xarakter xususiyatlarini o‘zgartirish yoki umuman almashtirish, shuningdek, voqealar rivojini tubdan o‘zgartirish mumkin. Masalan, tajriba-sinov ishlari jarayonida ikkita ertak: “Zumrad va Qimmat” hamda “Qizil Qalpoqcha” ertaklarining dinamik modellarini ishlab chiqildi va tajriba ishlariga samarali tadbiq etildi. “Mazkur ertaklarning dinamik modellashtirishga asosiy sabab maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu ertaklarni tushunishda duch kelingan tushunmovchiliklar, savollarga yetarlicha javob olinmagani oqibatda”, deviant xulq-atvorning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi aks-ta’sirning vujudga kelgani bo‘ldi. Shuningdek, bolalarda ular yashayotgan oilada mavjud gender tolerantligi muammolarining ertaklarni tushunishda salbiy effekt berishi oqibatida ularda ichki agressiya paydo bo‘lishi ham kuzatildi. “Mazkur sabablar tadqiqot ishida dinamik ertaklarga mavjud ehtiyojlarni aniqlash hamda ertaklarning dinamik modellarini tuzish zaruriyatini asoslab berdi”.

Dinamik ertaklar

(Qizil qalpoqcha ertagi misolida)



Dinamik ertaklar. “Zumrad va Qimmat” ertagining dinamik modeli.

“Zumrad va Qimmat” ertagidagi voqealar rivojining statik va dinamik shakllari qisqacha ta’rifi quyidagi jadvalda berildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

“Zumrad va Qimmat” ertagidagi voqealar rivojining statik va dinamik shakllari

Statik	Dinamik	Bolalar ko’rsatgan sabablar
Zumradning o’gay onasi doim xo’rlaydi	Zumradning o’gay onasi unga sovuqroq munosabatda bo’ladi	Bolalar o’gay onalar judayam shafqatsiz emas, deb hisoblaganlari uchun ushbu variantni taklif qildilar.
Zumradning o’gay onasi Zumradning otasida qizini o’rmonga adashtirib kelishini talab qiladi	O’gay ona Zumradga o’rmondan o’tin terib kelishini so’raydi	Bolalarda Zumradni o’z otasi o’rmonga tashlab kelishi o’g’il bolaga xos bo’lmagan negativ xulq-atvor, yomon sifat sifatida baholaganlari, o’g’il bolalar adolati, kuchli, jasur bo’lishi kerak, qo’rqqoq va zaif bo’lmashligi kerak, degan fikrdaligi sababli, mazkur variantni taklif qildilar.
Zumrad Sehrgar kampirning uyida yashaydi	Zumrad o’rmondagi tashlandiq kulbada o’rmon hayvonlari bilan birga o’zi yakka holda yashaydi.	Bolalarning fikricha, Zumrad qiz bola bo’lganligi uchun uyda qizlar qila oladigan deyarli hamma ishlarni bajara oladi va u o’rmondagi tashlandiq kulbada o’rmondagi hayvonlar bilan birga yashay oladi.
Sehrgar kampir Zumradga sandiqda sovg’a beradi	Zumrad o’rmonda qo’ziqorin, maymunjonlarni terayotib, tashlandiq xazinani topib oladi	Bolalar Zumradning mehnatkashligini Xudo taqdirlashi mumkin, deb hisobladilar.
Zumrad uyiga qaytishi bilan o’gay onasi va Qimmat uning sovg’alariga hasad qiladilar, Qimmat ota bilan o’rmonga Sehrgar kampiri topish uchun jo’navdi.	Zumrad topib olgan xazinasi bilan uyga qaytadi. U xazinani maymunjon terayotib topib olganini aytadi. Qimmat o’rmonga xazina izlab topish uchun jo’navdi.	Bolalar Qimmat ham Zumrad kabi qiyinchilik bilan xazina topishini, qiz bola bajara oladigan uy ishlarini o’rganishini istadilar.
Qimmat Sehrgar kampirning uyida dangasalik qilib yashaydi, kampir unga xizmat qiladi.	Qimmat o’rmondagi xaroba kulbada yashaydi, avval o’zi uchun ham, o’rmondagi hayvonlar uchun ham oziq-ovqat izlamaydi, o’tin termaydi, mevalarni izlamaydi, ammo ikkinchi kuni rosa qorni ochadi, uning yonidagi kiyik bolalari ham och qolishadi. Qimmat kiyik bolalariga rahmi keladi va o’rmonga borib oziq-ovqat qidirib topadi. Qimmat hayvonlarni boqadi, o’zining ham qornini to’yg’izadi, keyin uyni tartibga keltiradi.	Bolalarning fikricha, Qimmat uydagi dangasaligini o’rmonda ham qiladi, ammo yaxshi tarafga o’zgaradi. Oilada barchaning o’z vazifasi bo’lgani kabi u ham mehnat qila boshlaydi, atrofdagi jonzotlarning qadrlay boshlaydi. Tozalikka rioya qiladi.
Qimmat ichida katta ajdar bo’lgan sandiq bilan uyiga qaytadi.	Qimmat Zumrad kabi katta xazina topa olmaydi, ammo unda o’rmon hayvonlari qimmatbaho tosh sovg’a qilishadi. Qimmat sovg’asi bilan birga yangi do’stlar orttiradi va uyiga qaytadi. Qimmat do’stlashgan o’rmon hayvonlari uni uyigacha kuzatib kelishadi.	Bolalarning fikricha, yaxshilikka yaxshilik qaytishi kerak. Qimmat o’rmon hayvonlarini boqqani uchun, hayvonlar u bilan do’stlashdilar, Qimmatga qimmatbaho sovg’a berishdi.
Qimmat uyiga qaytgach, onasi bilan sandiqni ochdi. Sandiq ichidagi ajdar ona-bolani yeb qo’ydi.	Qimmat uyiga qaytgach, Zumrad va otasidan kechirim so’radi, Zumrad bilan baravar uy ishlarini bajara boshladi. Onasiga zulm qilish yaxshi emasligini tushuntirdi. Oila birga baxtli hayot kechira boshladi	Bolalar har bir inson yomon bo’lsa ham, unga imkon berilishi kerak, shunday ekan, Qimmatni Zumradga o’xshab yaxshi qiz bo’lishga hamma sharoit yaratish kerak, deb hisobladilar.
Zumrad va otasi baxtli hayot kechira boshladilar.	Oila baxtli yashay boshlagach, qo’shni qishloqda yashaydigan qarindoshlari ularnikiga mehmonga kela boshladilar. Bir oz vaqt o’tgach, qizlarning onasi ularga o’g’il bola uka olib keldi.	Bolalarning fikricha, dunyoda hammaning qarindoshlari bor, demak, Zumrad va Qimmat oilasining ham qarindoshlari bo’lishi kerak. Shuningdek, Zumradning otasiga o’g’il bolalar bajaradigan ishlarda yordam berish va opalarni himoya qilish uchun o’g’il farzand ham kerak. Shuning uchun, oilada yangi a’zo paydo bo’ldi.

Yuqoridagi dinamik ertakdan ko’rinib turibdiki, bolalar tabiatan ezgulikka intiladilar. Shu sababli ham, ular ertaklarni yaxshilik va ezgulik elementlari bilan boyitibgina qolmay, ertak voqealarini tubdan

o'zgartirdilar. Shuningdek, bolalarning fikricha, ertakda har doim yomon (yovuz) taraf bo'lishi shart emas, chunki hayotda odamlardan tashqari inson hayotiga xavf soluvchi ko'plab muammolar mavjud. Katta guruhlarda tarbiyalanayotgan 5-6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar bu yoshda ko'pincha o'zlariga ishonmaslik, mazah bo'lish, kulguli ko'rinish, noto'g'ri ish qilish kabilardan qo'rqishadi. Agar bu muammolarni o'z vaqtida ijobiy hal etilmasa, kelajakda bu jiddiy psixik-ijtimoiy hamda pedagogik muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolarni ijobiy yechish uchun statik va dinamik ertaklardan yuqori samara bilan foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbonova, G.R., (2021). The concept and essence of Gender Representations in Pedagogy and Psychology. Middle European Scientific Bulletin, 2021, Volume 10, Issue 3, pp. 332-342, ISSN 2694-9970 (E), Czech Republic.
2. Guzal Kurbonova., Game technologies in the formation of gender tolerance in children of a large group of preschool organizations. South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR), 2022, Vol. 12, Issue 1-2, pp. 67-70, ISSN: 2249-877X, India,
3. Kurbonova, G., (2021). Analysis of Views on Gender Tolerance from the Point of View of Approach. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2022, Volume 1, Issue 11, 35–38. ISSN 2792-1883 (E), Spain,
4. Kurbanova, G. (2021). Формирование гендерной толерантности у детей старшего дошкольного возраста. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 22(22). Вестник интегративной психологии 2021 Выпуск 22.
5. Kurbonova, G., (2021). Formation of Gender Tolerance Among Preschoolers. Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences, 35–37.